

Raxmanov Abdimalik Ergashevich

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi

E-mail: raxmanov-57@mail.ru

Tel: +998905195503

UDK: 091.122.136

TASAVVUF FALSAFASIDA BORLIQ HAQIDAGI TA'LIMOT

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom olamida tasavvuf ta'limotining o'rni, uning tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot tasavvuf falsafasining borliq haqidagi ta'limoti (teologik ontologiya)ga e'tibor qaratadi, jumladan borliq tushunchasi, uning mohiyati va vahdat ul-vujud falsafasi asosidagi tushuntirishlar ko'rib chiqiladi. Maqolada Mutlaq vujudning borliq mohiyati va olamning yaralishi haqidagi teologik talqinlar, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar tasavvufiy nuqtai nazardan izohlanadi.

Kalit so'zlar: tasavvuf (so'fiylik), zohidlik davri, orifona tasavvuf, islomiy tasavvuf, tasavvuf ontologiyasi, vahdat ul-vujud, panteizm, naturalistik panteizm, ilohiy-irfoniy panteizm, inson borlig'i.

Рахманов Абдималик Эргашевич

Старший преподаватель, кандидат философских наук

Термезский государственный университет

E-mail: raxmanov-57@mail.ru

Тел.: +998905195503

УЧЕНИЕ О БЫТИИ В ФИЛОСОФИИ СУФИЗМА

Аннотация. В данной статье подробно анализируется роль суфизма в исламском мире, его исторические корни и этапы развития. Исследование сосредоточено на философском учении суфизма о бытии (теологическая онтология), включая понятие бытия, его сущность и интерпретацию на основе философии «вахдат уль-вуджуд». Рассматриваются теологические концепции о природе Абсолютного бытия и сотворении мира, а также взаимосвязь человека и природы с точки зрения суфизма.

Ключевые слова: тасаввуф (суфизм), период аскетизма, просвещённый суфизм, исламский суфизм, онтология суфизма, вахдат ул-вужуд, пантеизм, натуралистический пантеизм, теологический пантеизм, бытия человека.

Rakhmanov Abdimalik Ergashevich

Senior Lecturer, Candidate in Philosophy

Termez State University

E-mail: raxmanov-57@mail.ru

Phone.: +998905195503

THE DOCTRINE OF BEING IN SUFI PHILOSOPHY

Abstract. This article provides a detailed analysis of the role of Sufism in the Islamic world, its historical roots, and stages of development. The study focuses on the philosophical teachings of Sufism concerning being (theological ontology), including the concept of being, its essence, and interpretations based on the philosophy of Wahdat al-Wujud. The article examines theological concepts regarding the nature of the Absolute Being and the creation of the universe, as well as the relationship between humans and nature from a Sufi perspective.

Keywords: Sufism, ascetic period, enlightened Sufism, Islamic Sufism, ontology of Sufism, Wahdat al-Wujud, pantheism, naturalistic pantheism, theological pantheism, human being.

Kirish.

Sharqona milliy madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, kelgusi ma'naviy yuksalishimizni ta'minlash uchun tarixiy ildizlarimizni, o'tmish ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimizni yaxshi o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tasavvuf Sharq xalqlarining, shu jumladan yurtimizning ijtimoiy va ma'naviy hayoti tarixida o'chmas iz qoldirgan diniy-falsafiy oqimlardan biri bo'lib fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U o'zining uzoq taraqqiyoti davomida tarixiy davrlarning ijtimoiy, madaniy, g'oyaviy va axloqiy talablariga mos tarzda turli ko'rinishlarda rivojlanib keldi. Afsuski, sobiq sho'rolar tuzumining kommunistik mafkura hukmronligi davrida tasavvuf ta'limotiga bir yoqlama qarash hukm surdi. Uni «diniy-mistik»,

«reaksion», «pessimistik» ta’limot deb uqtirib kelindi. Mustaqillik yaratgan keng imkoniyatlar tufayli hamda istiqlol quyoshining nurlaridan bahramand bo’lib, xalqlarimizning ming yillar mobaynida yaralgan boy manaviy merosiga, o’tmish qadriyatlarimizga, shu jumladan tasavvuf ta’limotiga ham munosabatimiz o’zgarib, uni to’g’ri, obyektiv (xolisona) tahlil qilish imkoniyatiga ega bo’ldik.

Adabiyotlar tahlili.

Mustaqillikdan keyingi o’zbek tasavvufshunoslik maktabining asoschisi prof. Najmiddin Komilov ta’biri bilan aytganda, “tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma’naviy hayotiga chuqur kirib bordi, fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta’sir ko’rsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g’oyalaridan ruhlanganlar”. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Mamlakatimizda “jaholatga qarshi – ma’rifat” degan ezgu g’oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do’stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ’ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo’lib qoladi” [1].

Tasavvuf, uning yurtimizdagi tariqatlari va asoschilari to’g’risidagi ma’lumotlar A.Navoiyning «Nasoim-ul-muhabbat», A.Jomiyning «Nafohot al-uns min xazarot al-quds», Xusayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoni», Ali as-Safiyning «Rashahot ayn-al-hayot», Hoja Muhammad Porso Buxoriyning «Anis at-tolibin va uddat as-solikin», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro», Aziziddin Nasafiyning “Insoni komil” va shu kabi nodir asarlarda uchraydi. Ayniqsa yurtimizda shuhrat topgan tasavvuf tariqatlarining asoschilari al-Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G’ijduvoni, Bahovuddin Naqshband va ularning izdoshlari yaratgan nodir asarlar tasavvuf tahlili uchun asosiy manbalardir. Keyingi yillarda tasavvuf tarixi va ta’limotiga bag’ishlangan ko’plab risola va maqolalar yaratilmoqda. Bular rus tilida chop etilgan Ye.E.Bertelsning «Суфизм и суфийская литература», M.P.Stepanyansning «Философские аспекты суфизма» degan risolasi [9] va

«Проблемы познания суфизма» maqolasi, A.Muhammadxodjaevning «Гносеология суфизма», Nasafiyning «Hoja Ahmad Yassaviy», Orif Usmonning «Bahovuddin Naqshband ta'limoti», Botir Valixo'jaevning «Hoja Ahrori Vali», Najmiddin Komilovning «Najmiddin Kubro», Muhammadjon Jakbarovning «Komil inson g'oyasining tarixiy-falsafiy negizlari», Ja'far Xolmo'minovning «Tasavvuf ontologiyasi» nomli kitoblari, «Yassaviy kim edi», «G'oyiblar haylidin yongan chiroqlar» kabi to'plamlar, «Tafakkur», «Muloqot» singari jurnallarda chop etilayotgan N.Komilov [4], Abdulhakim Shariy Juzjoniy [2], M.Oripov va boshqalarning maqolalari shular jumlasidandir. Ayniqsa tasavvufshunos olim N.Komilovning «Tasavvuf yoki komil inson axloqi» [4], «Tasavvuf» [5] nomli kitoblari alohida diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tasavvuf falsafasida borliq masalalarini tadqiq qilishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

So'fiylik (tasavvuf) avvalo muayyan ijtimoiy harakat hamda g'oyaviy ta'limot sifatida maydonga keldi. Bunga sabab, birinchidan, u inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, jaholat va haqsizlikka qarshi o'laroq maydonga chiqdi va ruhiy-axloqiy poklikni targ'ib etib keldi. Ikkinchidan, tasavvuf garchi islom bag'rida nish urib, Qur'on va hadislardan oziqlangan, shariat ahkomiga tayangan bo'lsa-da, u diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning turmush tarzi, zo'ravonlik, talonchilik va manfaatparastlikka zid tarzda mehnatkash xalq noroziligini ifodalab, el orasida keng yoyilib keldi va ilm-ma'rifatga tashna ziyolilar qalbini band etdi. Shuni nazarda tutib, atoqli olim Ye.E.Bertels o'tgan asr boshidayoq qayd etgan edi: «Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas., bu adabiyotdan xabardor bo'lmasdan Sharqning o'zini ham anglash qiyin» [9]. Shunday qilib, tasavvuf zohidlik va

darvishlik, oriflik harakatlari sifatida paydo bo'lib, avvaldanoq boylikka ruju qo'yish, adolatsizlik, zo'ravonlik kabi qator ijtimoiy illatlarni qoralovchi, insonlarning xudo oldidagi tengligi, kambag'al faqirlarga insoniy munosabatda bo'lish kerakligi to'g'risidagi demokratik mazmundagi qarashlarga, rasmiy islom aqidaviy ta'limoti va mutaassibligiga zid bo'lgan yuksak orifiy va hurfikrli tafakkuriga ega ediki, bu tasavvuf va u bilan bog'liq madaniyatga umuminsoniylik va erkin fikrlilik yo'nalishini berar edi. Shuning uchun ham tasavvuf keng xalq ommasi orasida, xususan, hunarmand-kosiblar, ma'rifatchi ziyolilar orasida keng tarqalib chuqur ijtimoiy zaminga ega bo'ldi. Tasavvufdagi insonparvarlik, haqsevarlik va hurfikrlilik g'oyalari, demokratik talablar uni ma'naviy hayot va madaniyatning eng keng va ommaviy oqimiga, eng yashovchan ta'limotga aylantirdi.

Tasavvuf falsafasi shakllanishining ma'naviy ildizlari, uning g'oyaviy manbalari haqidagi masalada ham xilma-xil qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar tasavvufiy ta'limotlar islomgacha ham mavjud edi, deb ta'kidlasa, ba'zilari tasavvuf islomdan keyin paydo bo'lgan, deb ko'rsatadilar. Bizningcha, so'fiylik harakati va tasavvufning diniy-falsafiy ta'limoti musulmon Sharqida islomiy tasavvuf sifatida maydonga keldi va rivojlandi. Ammo tasavvufiy g'oya va ta'limotlar o'z-o'zicha shakllangan emas, balki muayyan tarixiy-ma'naviy ildizlar va g'oyaviy manbalar zahirida paydo bo'lgan. Shuni ham qayd etmoq joizki, islomiy tasavvuf o'zi o'zlashtirgan jamiki g'oya va qarashlarni, amaliy qoidalarini islom ruhida qayta ishlab, shariatga muvofiqlashtirgan. So'fizm falsafiy ta'limotining g'oyaviy manbalari sifatida qadimgi zardushtiylikni, hind diniy-falsafiy ta'limotini, yunon falsafasi va undagi Aflotun va neoplatonizm ta'limotlarini hamda ilk islom ta'limotini, uning Qur'on va Xadis manbalarini ko'rsatish mumkin [4].

Tasavvuf falsafasidagi bosh muammo – insonning ma'naviy kamoloti masalasi uning borliq to'g'risidagi ta'limoti bilan chambarchas aloqadordir. Tasavvufning borliq haqidagi ta'limoti (ontologiyasi) - bu tasavvuf falsafasining bir bo'limi bo'lib, u borliqning mohiyati, yaratilishi, uning tarkibi va insonning

borliqdagi o'zni kabi savollarga javob beradi, ya'ni borliq nima va u qanday mavjud degan falsafiy masalalarni so'fiylik nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Bu ta'limotda borliqning asosi yoxud javhari (substansiyasi) - Alloh taolo ekanligi haqidagi g'oyani Vahdat ul-vujud falsafasi orqali ifoda etadi.

Tasavvuf falsafasining asosiy bahs mavzularidan biri bo'lmish "Vahdat ul-vujud" (borliqning birligi, borliqning yagonaligi) nazariyasi mazkur nazariya asoschilaridan biri Muhiyiddin ibn al-Arabiy qarashlari asosida Naqshbandiya tariqatining nazariyotchilaridan biri Hoja Muhammad Porso Buxoriy hamda buyuk mutasavvuf shoir va mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy tomonidan qayta ishlanib, naqshbandiyona mazmun-mohiyatga ega bo'ldi [3].

Tasavvufning borliq falsafasi, ya'ni yaratuvchi Alloh bilan mavjud olam va inson munosabatlari to'g'risidagi ta'limoti «vahdat ul-vujud» nazariyasida o'z ifodasini topgan bo'lib diniy-panteistik xarakterga egadir. «Vahdat» so'zi birlik, «vujud» esa borliq ma'nosini bildiradi, ya'ni borliq, olam birligi demakdir. Tasavvuf falsafasining borliq haqidagi ta'limotini tahlil qilishda panteistik dunyoqarash masalasiga e'tibor qaratish muhimdir. Panteizm (yunoncha pan - hamma ; teos - xudo) Xudo bilan olamni aynanlashtiruvchi, ular aslida bir narsa, yagona bir vujud deb biluvchi falsafiy ta'limot. Sharq falsafasida bunday ta'limot "Vahdat ul-vujud" nomi bilan mashhur. Musulmon Sharqining falsafiy va ijtimoiy tafakkuri tadqiqotchilari panteizmdagi ikki qarama-qarshi yo'nalishni qayd etadilar. Jumladan, o'zbek falsafasining asoschisi akad. I.Mo'minovning izohlashicha, panteizmni ikki oqimga ajratish mumkin: biri - "vahdati vujud" bo'lib, "Olam Xudodir" degan tamoyildan kelib chiqadi. Ikkinchisi esa "Xudo olamdir" deydi. Bu qarash arab falsafasida "vahdati mavjud" (borliqning birligi) nomi bilan tanilgan. Shundan kelib chiqib Vahdat ul-vujud ta'limotining ikki xil ko'rinishini bir-biridan farqlash lozim: a) falsafiy Vahdat ul-vujud (naturalistik panteizm); b) diniy-irfoniy Vahdat ul-vujud (ilohiy panteizm) [6].

Tasavvufning diniy-irfoniy ta'limotiga ko'ra, xudo va real mavjud olam o'rtasida, Haq vujudi bilan o'tkinchi, yaratilgan narsalar dunyosi vujudida aynan jismoniy birlik emas, mohiyatli birlik mavjuddir. Butun real olam yaratuvchi

Parvardigorning mujassamlanishidir, yani emanatsiyasidir. Tasavvuf falsafasining o'ziga xosligi undagi xudo to'g'risidagi vahdat-ul-vujud, vahdat-ul-mavjud va vahdat-ul-shuxud, ya'ni vahdatning (xudoning) o'zligida, dunyoda va shaxsda namoyon bo'lishi to'g'risidagi orifiy panteistik ta'limoti bilan, xudoga yetishish (vasl) va uning ilohiy ma'rifatga erishishning shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlarini qamrab oluvchi o'ziga xos yo'lidan iborat amaliyoti bilan belgilanadi. Dunyo, real olam ilohiy ruhning dunyoviy ruh shaklida butun olamga tarqalishi bo'lib, inson ham shu ruhning bir qismi, ertami-kechmi u bilan qo'shiladi, Haqqa yetishish faqat payg'ambarlargagina xos bo'lmay, balki pirumurshid izidan borib, ruhni pokizalash va qator marosim, maxsus axloqiy, amaliy shart-sharoitlarga amal qilishi tufayli komil insonlar ham muyassar bo'lishlari mumkin [7].

Tasavvuf falsafasida Alloh va olam bir-biriga qarama-qarshi tarzda turgan kuchlar emas, balki Alloh voqeiy olam bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Mavjud olam xudoning cheksiz makoni deb talqin qilinadi. Demak, xudo koinotda, barcha mavjudotda, jumladan, har bir insondadir. Tasavvuf falsafasiga binoan, Alloh taolo - bu sababi avval (uni Javhari zot, Mutloq ruh, Aqli kull ham deydilar) bo'lib, uning sifatleri quyidagicha: husni mutloq, kamoli mutloq, hayri mutloq. Xudo ko'rinmaydi, u g'oyibot (g'ayb) olamiga mansub bo'lib, uni ko'rish, bilish mumkin emas, u ko'rinmas zotdir. Xudoning to'rtta zot sifatleri mavjud: 1) axad - yagonalik, ya'ni uning sherigi yo'q; 2) avval - birlamchi; 3) azal - cheksizlik; 4) abad- mangulik, abadiy, mutloqlik. Alloh taolo avval Muhammad alayxissalomning nurini yaratdi. So'ngra shu nur tufayli olamlarni va odamlarni yaratdi. Shunday qilib, olam asosida Muhammad nuri yoki Muhammad haqiqati yotadi. Agar Haq deganda - uning ilmini va Habibulloh nurini anglasak, olamlar avvalida Muhammad nuri mavjud bo'lganligi sababli birinchi inson - Hazrati Odam Safiullohni Muhammadning o'g'li, boshqacha aytganda, Muhammad alayhissalomni Odam Atoga nisbatan ham o'g'il, ham ota deyish mumkin. Muhammad alayhissalom nuridan so'ng loxut olami vujudga kelgan. Loxut olami ilohiyot olami demak, undan keyin jabarut, ya'ni buyuklik olami va uning ketidan

malakut olami - farishtalar olami yaratildi. Loxut Haq zotini ifodalasa, jabarut nurlardan iborat olamdir, malakut esa latif ruhlardan tuzilgan olam hisoblanadi. Bu olamlarda shakl – a’roz yo’qdir. Bu xususiyat jismlar olami bo’lmish mulk olamiga xosdir. Uni shahodat olami yoki olami nosut ham deydilar [3].

Xudo – abadiy, mutloq, mavjud olam esa ma’joziy (arab. dunyoviylik demak), o’tkinchi xarakterga ega, chunki xudoning zohir ismlari mavjud: Jamol, Jalol, Kamol. Alloh taolo zohir ismlari bo’yicha shahodat olamiga mansub. Biz ko’rib turgan olam Allohning ko’rinishi, mujassamlanishi, yani jamoli, jaloliyoti, kamoloti. Zohir ismlari bo’yicha xudoning mavjudligini sezish, idrok qilish mumkin, mavjud olamni bilish orqali Allohning yaratuvchiligiga, yagonaligiga, yani biru borligiga ishonish mumkin. Shu asnoda, olamni bilish Allohni bilishga olib keladi, degan ijobiy fikrlar tasavvufda mavjuddir.

Tasavvuf nazariyotchilari inson borlig’ini ham alohida qayd etadilar. Ular inson borlig’i bu olami sag’ir (kichik olam) sifatida olami kabir (katta olam) xususiyatlarini o’zida aks ettiradi. Bu qarash insonning ikki asosdan - jism va ruhdan iboratligini tasdiqlaydi. Parvardigor inson ruhini o’zining rahmoniy nafasidan ato etgan ekan, demak, inson Mutloq ruhning bir qismi va shu sababli u o’z asliga qarab intihosiz sog’inch va muhabbat bilan intiladi. Aslini olganda, olam, uning ashyolari, tirik mavjudotlar, inson - barchasi Mutloq ruhning muhabbati tufayli vujudga kelgan. Tasavvuf ta’limotiga ko’ra boshida Mutloq ruh javharidan o’zga hech narsa yo’q edi. Mutloq ruh o’z husnu jamoli, qudratiga mahliyo bo’ladi, ya’ni o’zi o’zini sevib qoladi va husnu jamolini namoyish etish uchun dunyoni yaratadi, chunki maqsad o’z timsoli sifatida Insonni yaratish edi. Demak, dunyo Mutloq ruhning ko’zgusi, inson uning muhabbatining mevasi. Inson o’z xilqati, tuzilishi bilan ilohiy xususiyatlarni aks ettiruvchi timsoldir, uning qalbi bo’lsa nuri rahmon maskanidir [8].

Xulosa.

Muxtasar aytganda, Sharq falsafiy tafakkuri tarixida vahdat-ul-vujud (borliqning birligi) ta’limoti ko’pincha tasavvuf falsafasida yaqqol namoyon bo’ladi. Bu ta’limot xudo, real olam va insonning mohiyatiy birligini e’tirof

etuvchi diniy-irfoniy panteizm ruhidagi nazariyadir. Ushbu falsafiy-irfoniy ta'limot butun borliq va undagi mavjud narsalar aslida yagona bir borliq ekanligi, olamdagi barcha mavjudotlar, narsa va hodisalar aslida o'z-o'zidan vujudga kelmasligi, balki ular o'rtasida mustahkam, kuchli uzviy aloqadorliklar mavjudligini uqtiradi. Olamdagi barcha mavjudliklar va voqea-hodisalar bir-biri bilan uzviy bog'langan holda izchil va uzluksiz tarzda shakllanib, rivojlanib borishi haqida ta'lim beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil. – “Xalq so'zi” gazetasi, 25-yanvar 2020-yil, № 19(7521).
2. Abdulhakim Sha'riy Juzjoniy. Tasavvuf ta'limotining ildizlari. – Toshkent. “Muloqot” jurnali, 1995. 1-son. – B. 132-137.
3. G'afforova Z. O'n sakkiz ming olam sarvari: aloqadorlik. – Toshkent: “Tafakkur” jurnali, 1997. 2-son. – B. 78-86.
4. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1996. – 272 b.
5. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: “Movaraunnahr”, 2009. – 444 b.
6. Raxmanov A. Tasavvuf falsafasida komil insoniylik mezonlari masalasi. – Toshkent: O'zMU xabarleri jurnali (ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi), 2024. 1/11. – B.165-167.
7. Xolmo'minov J. Tasavvuf ontologiyasi (monografiya). – Toshkent: “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 190 b.
8. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – Toshkent: “Minxoj”, 2003. – 232 b.
9. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1995. – 244 с.